

SISERONNING NOTIQLIK ILMIGA QO'SHGAN HISSASI

Hayotova Ruxshona Hayit qizi

Buxoro davlat pedagogika instituti

O'zbek tili va adabiyoti yo'nalishi 3-O'TA-24 guruh talabasi.

<https://doi.org/10.5281/zenodo.14976835>

Annotatsiya. Ushbu maqolada Siseron hayoti va faoliyati, asalari va nuq madaniyati va ritorikaning shakllanishidagi o'rni aks etadi

Kalit so'zlar: Siseron, nutq madaniyati, ritorika, nutq faoliyati, nutq ilmi, nutq madaniyati tadrijiyligi.

Аннотация. В данной статье отражены жизнь и творчество Цицерона-Пчелы и роль поэта в становлении культуры и риторики.

Ключевые слова: Цицерон, культура речи, риторика, речевая деятельность, наука о речи, методика культуры речи.

Abstract. This article reflects the life and work of Cicero, the bees and the role of the poet in the formation of culture and rhetoric.

Key words: Cicero, speech culture, rhetoric, speech activity, speech science, speech culture methodology.

Notiqlik – san'atning eng qadimgi turlaridan biridir. “Tinglovchilarga biror narsa – hodisani tushuntirish, isbot etish yoki ularning hissiyotiga, tushunchasiga ta'sir qilish niyatida so'zlangan nutq notiqlik faoliyatiga kiradi. Bu hodisani san'at darajasiga ko'tara olgan har bir shaxs notiqdir”.

Notiqlik san'ati dastlab Misr, Ossuriya, Vavilon, Hindistonda paydo bo'lan. Eramizdan avvalgi V asr boshlarida Yunonistonda shakllangan. Yunonistonda demokratiya tuzumining o'rnatilishi natijasida davlat ishlarida, xalq majlislarida, senat kengashlarida, sud ishlari va yig'ilishlarida respublikaning har bir ozod kishisi erkin nutq so'zlash huquqiga ega bo'lgan.

Davlatni boshqarishda qatnashishni xohlagan har bir shaxs chiroyli so'zlash san'atini egallashga majbur bo'lgan va bu narsa ehtiyojga aylangan. Mashhur notiq Siseron: “Tarixda yo yaxshi harbiy sarkarda, yo yaxshi notiq bo'lish kerak”, degan edi. Bunda notiqlik san'ati sarkardalik san'atiga tenglashtiriladi. Plutarx ham notiqlikning nihoyat darajada og'ir, sermashaqqatligini tan olib, bu san'atni hayotiy zaruriyat deb hisoblaydi. Sud ishlarida o'rnatilgan tartib ham bu san'atning yuksalishida katta turtki bo'ldi.

Chunki sud jarayonida javobgar o'ziga qo'yilayotgan aybning asossizligini isbotlab gapirishi, da'vogar esa o'z fikrida qattiq turishi, uni qoralashi shart edi. Ammo hamma ham chiroyli nutq so'zlash qobilyatiga ega bo'lmaganligi sababli, nutq matnlarini yozib beradigan bilimdon kishilar – "logograflar" ga ehtiyoj tug'ildi. Oradan biroz vaqt o'tib, tantanali nutq – epideytik nutq uslubi paydo bo'ldi. Logograflar bunday nutq matnlarini tayyorlash uchun o'zidan oldin o'tgan salaflarining merosiga va xalq og'zaki ijodiga murojaat qila boshladilar.

Notiqlik san'ati shu tariqa asta-sekin shakllanib, badiiy adabiyotning ravnaqida katta vazifani bajardi, tragediya, komediya, roman janrlarining paydo bo'lishiga ijobiy ta'sir ko'rsatdi.

"Bulardan tashqari, notiqlik san'atining rivoji adabiy tilning shakllanishiga, notiqlik san'ati nazariyasidan iborat bo'lgan "Ritorika" ilmining vujudga kelishiga sabab bo'ldi. Rimdagi barcha shoirlar va notiqalar shu maktabdan, ya'ni ritorika maktabidan ta'lim olganlar". Notiqalar tomonidan yaratilgan matnlar nasriy va poetik ijod namunasi bo'lib, Aristotel, Demosten, Sitseron kabi ijodkor notiqalarning nomi jahonga mashhur bo'lgan.

Yunoniston janubi sharqidagi dengiz ichkarisiga ancha yorib kirgan yarim orol Attika deb ataladi.) Osiyo usuli Rimda eramizgacha I asrning 50-yillariga qadar hukmronlik qilib kelgan. Bu usulning namoyondalari o'z chiqishlarini yorqin hamda ehtirosiga to'la teatr tomoshasiga aylantirar edilar, ularning yordamida o'z g'oyalarini ommaga unumli tarzda etkazganlar. Bu usulning notiqalaridan ko'proq tanilgan Mark Tulliy Siserondir. (eramizdan avvalgi 106 - 43) U Rimdan uzoq bo'lmagan Arpina qishlog'ida tug'ildi. Uning ota - onasi shahar fuqorosining badavlat suvoriylar toifasiga mansub kishilar edi. Ular o'z bolalariga yaxshi bilim berish maqsadida Rimga ko'chib kelishadi. Dastlabki tahsilini Yunon murabbiylari qo'lida olgan Siseron ilk bolaligidayoq Yunon tilini to'la-to'kis o'rgandi. Yirik huquqshunos Kvint Mutsiy Sevola va mashhur notiq Lutsiy Litsiniy Krokdan ta'lim oladi. Notiqlik asoslarini Appoloni Moloidan, aktyorlik maxoratini Aksiyan, Yunon falsafasini Filon Loriskiydan o'rganadi. Siseron Afinaga borib, yirik notiqlardan bu san'at sirlarini mukammal o'zlashtiradi. Bilimini chuqurlashtiradi. Siseron "Brut", "Notiq" nomli asarlarida Rim Ritorika tarixi haqida batafsil fikr yuritib, attikachilarning nazariyalariga tamomila qarshi mulohazalar bilan maydonga chiqdi. Uning ta'kidlashicha har qanday notiqning ko'zda to'tgan asosiy maqsadi tinglovchining zavqini uyg'otib, ularni o'ziga moyil qilishdan iboratdir. Notiq sharoitiga qarab mavjud usullarning hammasidan barobar foydalana olishi zarur. Sitseron fikricha, "kimki jo'n narsalar haqida oddiygina, kundalik voqealar haqida o'rta darajada, ulug' hodisalar haqida esa zavq - shavq, bilan gapirsa, shu odam so'z san'atining chinakam ustasi bo'ladi" deydi. Sitseron bo'lajak notiqning nimalarga e'tibor berishini quyidagi fikrlarda alohida ta'kidlaydi.

Oradan ko'p o'tmay, mashaqqatli mehnat samarasi sifatida uch kitobdan iborat "Notiqlar haqida" asari dunyoga keladi. Mazkur asar dialog shaklida yozilgan bo'lib, Lisiniy Krass, Mark Antoniy Yuliy Sezar, Strabon, Katull, yurist Stsevola va uning shogirdlari Katt, Sulnisiy Ruflarning ijtimoiy va siyosiy nutqlari, ularning notiqlik san'ati hamda bu san'atning eng muhim 12 masalalaridan tortib siyosiy muammolargacha bo'lgan qimmatli fikrmulohazalarni o'z ichiga oladi. Notiq davlat ishlarini chuqur tushunadigan, xalq qayg'usiga hamdardlik qiladigan davlat arbobi bo'lishi kerakligi o'qitiladi. Shuningdek, Sitseron notiqlarning odamlar diliga qo'rquv, g'azab, qayg'u sola bilishi, ba'zan hayajonli holatlarda kishilarni xalos qilib, ularning ruhida xotirjamlik, mehr-shafqat hislarini uyg'ota bilishi kerak, degan fikrni ilgari suradi. Sitseron "Brut" (47-yil), "Notiq" (56-yil) kabi asarlarida Rim notiqlik san'ati tarixi haqida fikr yuritadi. Notiqning asosiy maqsadi-tinglovchi zavqini uyg'otib, o'ziga moyil qilishdan iborat. Siseron fikricha, kimki jo'n narsalar haqida oddiygina, kundalik voqealar haqida o'rta darajada, ulug' hodisalar haqida shavq-zavq bilan gapirsa, shu odam so'z san'atining chinakam ustasi bo'lishini alohida ta'kidlaydi. Poeziya tilining vazni va ohangdorligi, uzun va qisqa hijolarning, unli va undosh tovushlarning almashinuvi, bir so'zning oxiri va ikkinchi so'zning boshida ikki unlining qator kelishiga yo'l qo'ymaslik, so'zlarni to'g'ri talaffuz etish, grammatik qoidalarga e'tibor kabi muhim masalalar ham notiq asarlarida o'z ifodasini topgan. Sitseron fikricha, notiq quyidagi xislatlarga ega bo'lmog'i lozim:

1. Notiqlik o'zi juda dadil va aytgan gaplariga amin bo'lishi kerak.
2. Nutq to'la isbotlanishi lozim.
3. Nutqdagi hamma narsa muhim hisoblanishi kerak.
4. Nutq materialini sidqidildan to'plash va idrok etish zarur.
5. Nutq materialini joylashtira olishi va tushunishga oson bo'lishini ta'minlashi darkor.

Sitseronning eng sevgan usuli-tinglovchini toliqtirib qo'ymaslik uchun ko'tarinki uslubni bir parda pasaytirib, sud ishiga aloqador kishilarning goh salbiy, goh ijobiy xarakteristikasini berish, mashhur zotlar haqida biron latifani eslatish lozim bo'lsa bir hayotiy manzarani, dramatik voqealarni eslash, hikmatli so'z, maqol va qochiriq gapni qistirib o'tishdir. Sezar vafotidan so'ng, uning nabirasi Oktavian davlatni boshqaradi. Notiqning dushmanlari uni qatl etishni talab qiladi.

Shunday qilib Sitseronning avval o'ng qo'li qirqib tashlanadi, so'ng boshi tanasidan judo etiladi.

Siseronni butun insoniyat oldida ulug'lab, obro'sini oshirgan narsa uning ajoyib, takrorlanmas nutqlari bo'ladi.

Uyqonish davrida Italiya, Fransiya va Olmoniyaning insonparvar olimlari Tsitseronning ilhombaxsh nutqlarini sevib o'rgandilar. O'sha davrda chiroyli so'zlagan kishilar "Siseronchilar" deb atalar edi.

Rimda bir qancha vaqtgacha notiqlik san'ati rivojlanishidan to'xtab qoldi. O'rta asrlarga kelib esa notiqlikning diniy va sxolastik tomonlari avj olib ketdi. Din homiylari notiqlik san'atini o'z qo'llariga olganlaridan so'ng, uni o'zlarining maqsadlarini amalga oshirish uchun xizmat ettira boshladilar. Din ahllarining o'rtasida ham iste'dodli notiqlar bor edi. Ulardan ayniqsa Vasiliy Velikiy, Grigoriy Bogoslov, Ioann Zlatoust va Avreliy Avgustinlar katta shuhrat qozondi. O'rta asrlarning ikkinchi yarmidan boshlab, ya'ni XI-XII asrlardan "universitet notiqligi" deb nomlangan notiqlik san'ati rivojlandi. Dorilfununning tarix o'qituvchisi Yan Gus ilqor (progressiv) fikrlari uchun gulxanda yondirilgan. Oksford dorilfununining magistri Duns Skott sxolastik falsafa o'qituvchisi parijlik Per Abelyarlar ham shu san'atning atoqli vakillari edi.

Tinglovchilarni toliqtirib qo'ymaslik uchun nutq davomida ko'tarniki usulni bir parda pasaytirib, nutq mavzuiga aloqador shaxslar bo'lsa, ularning goh salbiy, goh ijobiy xarakteristikasini berish, ilgari o'tgan mashhur zotlar haqidagi biron latifani eslatib ketish, lozim bo'lganda ba'zi bir hayotiy manzarani, dramatik voqealarni eslash, o'rniga qarab biroz hikmatli so'z, maqol yoki qochiriq gapni qistirib o'tish -Sitseronning eng sevgan usullaridan edi. Sitseron o'zining salkam 40 yil davom etgan ijtimoiy va adabiy faoliyati mobaynida turli-tuman mavzularga bag'ishlab behad ko'p asarlar yozgan.

Xulosa qilib aytganda, Sitseronning 150 ga yaqin nutqi nashr etilgan bo'lsa, bizga qadar shulardan 58 tasi etib kelgan. Bulardan tashqari falsafa mavzularda yozilgan 12 ta asar, notiqlik nazariyasi va tarixiga doir 7 ta risola va 800 ga yaqin maktublari saqlanib qolgan.

REFERENCES

1. Shodiyevna, N. S. (2024). IN MODERN UZBEK POETRY POETIC INTERPRETATION IMAGES WATER AND FIRE. *MODERN SCIENCE*, 2181, 3906.
2. Nizomova, S. (2020). Symbolic interpretations of water and fire in modern poetry. *Интернаука*, (35), 75-76.
3. Nizomova, S. S. (2023). EXPRESSION OF WATER AND FIRE ICONS IN POEMS CREATED IN THE DEFINITION OF PLACE IN MODERN UZBEK POETRY. *Journal of Modern Educational. Achievements*, 8(8), 202-206.
4. NIZOMOVA, S. S. (2023). THE SYMBOLISM OF FIRE AND WATER IN POEM. *THE ROLE OF SCIENCE AND INNOVATION IN THE MODERN WORLD*, 1(9), 48-54.

5. Husenova, A., Jumayeva, M., Nizomova, S., Shokirova, M., Himoyeva, S., & Abdullayev, S. (2024). Effectiveness of experimental work aimed at developing environmental competence of students. In *E3S Web of Conferences* (Vol. 587, p. 03025). EDP Sciences.
6. Nizomova, S. S. (2020, August). THE SCOPE OF THE TOPICS OF THE SHARIA OF THE INDEPENDENCE PERIOD. In *Archive of Conferences* (Vol. 4, No. 4, pp. 68-69).
7. Nizomova, S. S. (2020, August). SHARIA'S DESCRIPTION OF THE CEREMONIAL ATTITUDE TO WATER. In *Archive of Conferences* (Vol. 4, No. 4, pp. 65-67).
8. Nizomova, S. S., & Munisxon, O. (2024, February). THE SIGNIFICANCE OF THE MAIN ACTIVITY GAME IN THE EDUCATION OF CHILDREN IN THE PRESCHOOL EDUCATION ORGANIZATION. In *INTERNATIONAL SCIENTIFIC AND PRACTICAL E-CONFERENCE" MODERN TENDENCIES OF DIGITAL EDUCATION AND WAYS OF IMPLEMENTING THEM IN THE EDUCATIONAL PROCESS"*—Brno, Czech (Vol. 1, pp. 1-5).
9. Nizomova, S. S., & Jumayeva, M. H. (2024). REPRESENTATION OF THE IMAGE OF WATER IN MODERN UZBEK POETRY. *YOUTH, SCIENCE, EDUCATION: TOPICAL ISSUES, ACHIEVEMENTS AND INNOVATIONS*, 3(1), 70-75.
10. Shodiyevna, N. S. (2022). The Symbolism of Fire and Water in Poetic Context. *European Journal of Innovation in Nonformal Education*, 2(2), 170-174.
11. Shodiyevna, N. S., & Pokizabonu, U. Interpretative Phrases Related to Water in Modern Poetry.
12. Shodiyevna, N. S. (2024). The Symbol of Fire in Poem. *International Journal of Formal Education*, 3(4), 83-86.
13. Nizomova, S. (2020). ZAMONAVIY SHE'RIYATDA SUV VA OLOV BILAN BOG 'LIQ OBRAZLARNI IFODALASH AN'ANASI. *ЦЕНТР НАУЧНЫХ ПУБЛИКАЦИЙ (buxdu. uz)*, 2(2).
14. Nizomova, S. (2021). ZAMONAVIY SHE'RIYATDA OLOV ANALOGLARINING OBRAZLANTIRILISHI. *ЦЕНТР НАУЧНЫХ ПУБЛИКАЦИЙ (buxdu. uz)*, 8(8).
15. Nizomova, S. (2024). IN MODERN UZBEK POETRY POETIC INTERPRETATION IMAGES WATER AND FIRE. *Modern Science and Research*, 3(10), 171-175.
16. Nizomova, S. S., & Munisxon, O. (2024, February). THE SIGNIFICANCE OF THE MAIN ACTIVITY GAME IN THE EDUCATION OF CHILDREN IN THE PRESCHOOL EDUCATION ORGANIZATION. In *INTERNATIONAL SCIENTIFIC AND PRACTICAL E-CONFERENCE" MODERN TENDENCIES OF DIGITAL EDUCATION AND WAYS OF IMPLEMENTING THEM IN THE EDUCATIONAL PROCESS"*—Brno, Czech (Vol. 1, pp. 1-5).

17. Nizomova, S. S. (2023). EXPRESSION OF WATER AND FIRE ICONS IN POEMS CREATED IN THE DEFINITION OF PLACE IN MODERN UZBEK POETRY. *Journal of Modern Educational Achievements*, 8(8), 202-206.
18. Nizomova, S. (2024). IN MODERN UZBEK POETRY POETIC INTERPRETATION IMAGES WATER AND FIRE. *Modern Science and Research*, 3(10), 171-175.
19. Nizomova, S. S., & Munisxon, O. (2024, February). THE SIGNIFICANCE OF THE MAIN ACTIVITY GAME IN THE EDUCATION OF CHILDREN IN THE PRESCHOOL EDUCATION ORGANIZATION. In *INTERNATIONAL SCIENTIFIC AND PRACTICAL E-CONFERENCE" MODERN TENDENCIES OF DIGITAL EDUCATION AND WAYS OF IMPLEMENTING THEM IN THE EDUCATIONAL PROCESS"*—Brno, Czech (Vol. 1, pp. 1-5).
20. Nizomova, S. S. (2021). Images In Modern Uzbek Poetry. *Psychology and Education Journal*, 58(1), 754-758.
21. Nizomova, S. S. (2020). MODERN POETRY. In *ТЕОРИЯ И ПРАКТИКА СОВРЕМЕННОЙ НАУКИ* (pp. 89-90).
22. Shodiyevna, N. S. (2024). IN MODERN UZBEK POETRY POETIC INTERPRETATION IMAGES WATER AND FIRE. *MODERN SCIENCE*, 2181, 3906.
23. Husenova, A., Jumayeva, M., Nizomova, S., Shokirova, M., Himoyeva, S., & Abdullayev, S. (2024). Effectiveness of experimental work aimed at developing environmental competence of students. In *E3S Web of Conferences* (Vol. 587, p. 03025). EDP Sciences.
24. Nizomova, S. (2020). Symbolic interpretations of water and fire in modern poetry. *Интернаука*, (35), 75-76.
25. Nizomova, S. (2020). Symbolic interpretations of water and fire in modern poetry. *Интернаука*, (35), 75-76.
26. Sharipova, M. (2024). ABDUNAZAR POYONOVNING 70 YILLIK YUBILEYI DOIRASIDA “ABDUNAZAR POYONOVNING BAXSHICHILIK SAN’ATIDA TUTGAN O ‘RNI” MAVZUSIDA RESPUBLIKA ILMIY-AMALIY KONFERENSIYA (Ilmiy maqolalar to‘plami): ABDUNAZAR POYONOVNING KUYLAGAN “ALPOMISH” VARIANTIDA MAROSIMLAR BADIY IFODASI. *Buxoro davlat pedagogika instituti jurnali*, 4(4).
27. Baxshilloyevna, S. M., & Firuzovna, R. S. (2024). KITOBXONLIK MADANIYATI ORQALI TALABALAR MA’NAVIYATINI YUKSALTIRISHNING ILMIY-NAZARIY ASOSLARI.
28. Sharipova, M., & Jabborova, D. (2024). COMMONALITIES IN THE RELATIONSHIPS OF FOLKLORE GENRES WITH LITERATURE. *Modern Science and Research*, 3(9), 170-177.

29. Sharipova, M., & Rajabova, S. (2024). SCIENTIFIC AND THEORETICAL BASIS OF IMPROVING THE SPIRITUALITY OF STUDENTS THROUGH LIBRARY CULTURE. *Modern Science and Research*, 3(9), 148-155.
30. Sharipova, M., & Saidova, S. (2024). THE SKILL OF CHARACTER DEVELOPMENT IN ABDULLA QAHHOR'S STORIES. *Modern Science and Research*, 3(9), 156-162.
31. qizi Hamidova, U. F., & Sharipova, M. B. (2024, February). METHODOLOGY OF DEVELOPMENT OF CREATIVE ABILITIES OF CHILDREN OF PRESCHOOL AGE. In *INTERNATIONAL CONFERENCE: PROBLEMS AND SCIENTIFIC SOLUTIONS*. (Vol. 3, No. 1, pp. 73-82).
32. Azimov, Y., To'xsanov, Q., Adizov, B., Sharipova, M., & Hojiyeva, N. (2024). Statistical analysis of thrift and ecological education concepts in elementary school students. In *E3S Web of Conferences* (Vol. 587, p. 02020). EDP Sciences.
33. Sharipova, M. (2023). "ALPOMISH" EPOSINING QADIMIYLIGI VA AN'ANAVIYLIGI. *ЦЕНТР НАУЧНЫХ ПУБЛИКАЦИЙ (buxdu. uz)*, 44(44).
34. Sharipova, M. (2024). EPOS HAMDA MAROSIM MUNOSABATINING QADIMIYLIGI VA AN'ANAVIYLIGI. *ЦЕНТР НАУЧНЫХ ПУБЛИКАЦИЙ (buxdu. uz)*, 46(46).
35. Sharipova, M. (2024). EPOS HAMDA MAROSIM MUNOSABATINING QADIMIYLIGI VA AN'ANAVIYLIGI. *ЦЕНТР НАУЧНЫХ ПУБЛИКАЦИЙ (buxdu. uz)*, 46(46).
36. Sharipova, M. (2023). "ALPOMISH" DOSTONIDA NIKOH MAROSIMINING ARXAIK-BAIY XUSUSIYATLARI. *ЦЕНТР НАУЧНЫХ ПУБЛИКАЦИЙ (buxdu. uz)*, 44(44).
37. Sharipova, M. (2023). "ALPOMISH" DOSTONI BADIY STRUKTURASIDA MAROSIMLARNING O'RN. *ЦЕНТР НАУЧНЫХ ПУБЛИКАЦИЙ (buxdu. uz)*, 30(30).
38. Sharipova, M. (2020). Вестник магистратуры. *ЦЕНТР НАУЧНЫХ ПУБЛИКАЦИЙ (buxdu. uz)*, 1(1).
39. Sharipova, M. B., & Inoyatova, F. I. (2018). USE OF PROBLEM-BASED LEARNING IN THE CLASSROOM. *УЧЕНЫЙ XXI ВЕКА*, (11), 69.
40. Sharipova, M. B., & qizi Shokirova, N. Z. «ALPOMISH» DOSTONI–BADIY BARKAMOL ASAR.
41. Sharipova, M. B., & qizi Salimova, K. R. "ALPOMISH" DOSTONIDA "KAMPIR O'LDI" MAROSIMI TASVIRI.
42. Sharipova, M. B. Ritual and Epic Relations in the Epic "Alpomish". *MIDDLE EUROPEAN SCIENTIFIC BULLETIN*.